ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.91.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MATQURBONOVA MUXABBAT SHOKIROVNA

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK JANR ASARLARI LEKSIKASINING MA’NOVIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.512.133’373: 821.512.133.09-3

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on philological sciences

Matqurbonova Muxabbat Shokirovna
Abdulla Qodiriyning kichik janr asarlari leksikasining ma’noviy-uslubiy xususiyatlari 3

Маткурбанова Мухаббат Шокировна
Семантико-стилистические особенности лексики произведений малого жанра Абдуллы Кодири 25

Matkurbanova Mukhabbat Shokirovna
The Semantic and Stylistic Features of the Lexicon in Abdulla Qodiriy's Works of Short Genres 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.91.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MATQURBONOVA MUXABBAT SHOKIROVNA

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK JANR ASARLARI LEKSIKASINING MA’NOVIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4322 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tsuull.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzilga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Normamatov Sultonbek Ermatovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna**
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Suyun Anirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.91.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “16” oktyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99 871) 281-42-44; faks: (99 871) 281-42-44; E-mail: monitoring@tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (334 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “3” oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil “3” oktyabr dagi 02 raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A. Hadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Q.U Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

S. Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida milliy tillar tarixiy taraqqiyotini tadqiq etish, til taraqqiyotining ma’lum bir davrida yaratilgan badiiy asar tili orqali u bilan bo‘g‘liq lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishini tavsiflash, muayyan adib badiiy ijodining leksik-semantik, semantik-stilistik, lisoniy-badiiy, lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy o‘rganish asosida adabiy til tadrijiy taraqqiyotining aniq bir davriga xos lisoniy qonuniyatlarni ochib berish va ularni ilmiy asoslash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy asar tilining leksik-sematik, semantik-stilistik xususiyatlarini, lisoniy vositalarning muayyan asardagi funksional-stilistik imkoniyatlarini o‘rganish, badiiy matnda so‘z tanlash va qo‘llash, ijodkor uslubini aniqlash va bu orqali muayyan davr badiiy nutq va uslubining poetik ko‘lamini belgilash bo‘yicha salmoqli ilmiy tajribalar to‘plangan. Bugungi globallashuv jarayonida adabiy til rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlar asarlarini davrning madaniy ongi bilan o‘zaro bog‘liqlikda til – badiiyat – milliy ong mushtarakligi tamoyili asosida tadqiq qilish, ularning pragmalingvistik, lingvokulturologik, etnolingvistik va psixolingvistik xususiyatlarini yoritish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda adabiy til taraqqiyoti bosqichlarini kopleks o‘rganish, har bir davr adabiy tili, adabiy merosi mohiyatiga chuqurroq kirib borish, hozirgi o‘zbek adabiy tili rivojiga ta’sir ko‘rsatgan ijodkorlar merosini o‘rganish borasida muhim fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Madaniy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni adabiy tilimiz, milliy tilshunosligimiz tarixini o‘rganish sohasida ham yangi talablarni qo‘ymoqda. O‘zbek tilshunosligi o‘zining keyingi davr rivojida o‘zbek milliy tili, adabiy tilining avvallari sho‘roviy mafkura ta’sirida chetlab o‘tilgan, tadqiq qilinmagan yoki yuzaki, bir tomonlama, odatda, qoralab tadqiq qilingan bosqichlarini, ayniqsa, o‘tgan asrning 20 – 30-yillar davrini o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda. Zero, “Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[1]. Shu sababli jadid adiblari yaratgan tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarni lingvistik aspektda o‘rganish, ularning milliy adabiy tilimiz taraqqiyotidagi xizmatlariga munosib baho berish tilshunoslik sohasida chuqur izlanishlarni olib borishni taqozo qilmoqda. O‘zbek zamonaviy nasrining darg‘asi, ma’rifatparvar jadid adibi, publitsist Abdulla Qodiriy asarlarining tili bo‘yicha tilshunoslikda birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, adibning kichik asarlari tili maxsus tekshirish obyekti bo‘lgan emas. Holbuki, Abdulla Qodiriyning kichik janrdagi asarlarining tili o‘sha davr o‘zbek adabiyoti va adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasi rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, uni tilshunoslik

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 6 мартдаги жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига сўзлаган нутқи // www.president.uz.

nuqtai nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20 – 30-yillar davri o‘zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda muhim va munosib material bera oladi. Bu holat tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abdulla Qodiriyning ijodi barcha davrlarda ham tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Bajarilgan ishlarning aksariyati adabiyotshunoslik yo‘nalishida bo‘lib[2], asosan, yozuvchining mahorati, “O‘tkan kunlar” romanining badiiy xususiyatlari va tahliliga bag‘ishlangan. O‘zbek tilshunosligida mustaqillik yillarida Abdulla Qodiriyning tilshunoslik merosi, yaratgan asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ular qatorida A.Boboniyozov[3], Z.Choriyeva[4], L.Jalolovalarning[5] ilmiy izlanishlari uchun adibning “O‘tkan kunlar” romani asosiy tadqiq obyekti bo‘lganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Qayd etish lozimki, X.Qodirova[6] tadqiqotida Abdulla Qodiriy asarlaridagi evfemik va disfemik vositalarning lingvistik xususiyatlari hamda adibning ulardan foydalanish mahorati

[2] Қосимов Б. ва бошқалар. Ватан ва миллат муқаддасдир. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати. – Тошкент: Фан, 1996; Алиев А. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Шарқ, 1967; Насриддинов Ф. Адибнинг йўли. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971; Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975; Собиров О. Сарчашма адиб ижодида. – Тошкент: Шарқ, 1975; Норматов У. Абдулла Қодирий боғи. – Тошкент: Фан, 1995.

[3] Бобониёзов А. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти. Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995. – 138 б.

[4] Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 144 б.

[5] Джалолова Л. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.

[6] Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 135 б.

tahlilga tortilar ekan, dissertatsiya obyekti, predmeti sifatida adib asarlaridagi evfemik va disfemik ma’noli birliklar, mazkur birliklarning til va uslub xususiyati keng tahlil qilingan va adibning ulardan foydalanish mahoratiga munosib baho berilgan. Tadqiqotchi S.Ziyotova[7]ning dissertatsion ishi “Mehrobdan chayon” romani leksikasi ustida olib borilgan bo‘lib, unda muallif asarda qo‘llangan leksikani lingvostilistik, tarixiy-etimologik, funksional-semantik, semantik-stilistik jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Keyingi yillardagi tadqiqotlarda adib ijodiy merosining lingvistik obyekt sifatida janr qamrovining ortishi, lingvistik tadqiq yo‘nalishi, metodlarida ham yangicha yondashuvlarning yuzaga kelayotganligi ahamiyatli sanaladi. Bunda M.Pardayeva, E.Abdurazzoqovlarning ishlarida[8] adib ijodiy merosining leksik-morfologik, grammatik xususiyatlari yoritilgan bo‘lsa, S.Normamatovning doktorlik dissertatsiyasida[9] adibning lug‘atchlik faoliyati ilmiy o‘rganilgan. R.Cho‘liyevning tadqiqoqot ishida esa adib kichik prozaik asarlarida, xususan, hikoya va hajviyalarida qo‘llangan lug‘at tarkibi lingvostatistik, tarixiy-etimologik, vazifaviy-semantik jihatdan tadqiqqa tortilgan[10].

Lekin bu ishlar adibning o‘zbek milliy tili va uning asosini tashkil etuvchi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmati, yaratgan asarlarining lingvistik xususiyatlari haqida to‘la tasavvur bera olmaydi. Yozuvchi yaratgan barcha asarlarning tili o‘ziga xos hisoblanadi. Xususan, she’riy, hajviy asarlari, hikoyalari hatto tanqidlarga javob tarzida yozilgan maqolalari kabi kichik asarlarining tili ham lingvistik o‘rganishga arziydigan manbalardir. Shuning uchun ham kichik asarlar tilini ma’noviy-uslubiy jihatdan lingvistik tadqiq etish bu boradagi hali mavjud bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Hozirgi o‘zbek adabiy tili va xalq shevalarining o‘zaro munosabati” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qodiriyning kichik janrdagi asarlari leksikasini tadqiq qilish, uning o‘ziga xos lug‘aviy, ma’noviy va uslubiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Qodiriy asarlari tili, jumladan, kichik asarlari tilining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish darajasini belgilash;

kichik asarlarda leksik-semantik munosabatlarning voqelanishini, so‘z ko‘chimlarining ifoda imkoniyatlarini ochib berish, chegaralangan leksikaning qo‘llanish xususiyatlarini tavsiflash;

---

[7] Зиётова С. “Мехробдан чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.

[8] Pardayeva M. Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. Dok ... diss. – Qarshi, 2023. – 116 b; Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok...diss. – Toshkent, 2023. – 131 b.

[9] Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. – Тошкент, 2020. – 240 б.

[10] Cho‘liyev R. Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlari leksikasi. Filol. fan. b. fals. dok...diss. – Buxoro, 2024. – 141 b.

kichik asarlar nutq stilistikasida qo‘llangan maqol, frazema, aforizm kabi paremiologik birliklarning nutqiy voqelanishi va ularning uslubiy xususiyatlarini yoritish;

leksik-stilistik, fonografik vositalarning matndagi funksional imkoniyati qirralarini aniqlash, ularning denotativ, konnotativ ma’no ifodalash nozikliklarini tavsiflash va shu asosda adibning uslubiy novatorligini belgilovchi holatlarni ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalari, 2017-yil “Info Capital Group” nashriyoti tomonidan chop etilgan 5 jildlik “Tanlangan asarlar”i to‘plamiga kiritilgan she’riy, hajviy asarlari, hikoyalari va publitsistik maqolalari olindi.

Tadqiqotning predmetini Abdulla Qodiriy yaratgan kichik janr asarlarning til xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, tarixiy-genetik, matniy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik asarlarda til ifodalari orasida sinonim, antonim, graduonimlar kabi leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos tarzda voqelanishi, davr adabiy tilida qo‘llangan leksemalarning metafora, metonimiya, sinekdoxa usullari asosida yangi ramziy ko‘chma ma’nolarda qo‘llanganligi, ular maqola, hajviya, felyetonlar tilining semantik-sitilistik rang-barangligini ta’minlaganligi misollar asosida dalillangan;

kichik asarlarda umumxalq tilining boy va rang-barang tomonlari o‘z ifodasini topganligi; maqol, frazema kabi paremiologik birliklarning o‘z holicha, shuningdek, ijodiy qayta ishlanib uslub talabiga mos ravishda matn tarkibiga singdirganligi muallifning uslubiy mahoratini aks ettiruvchi omillardan biri ekanligi isbotlangan;

tashqi moddiy olam, milliy tafakkurning bog‘liqligi asosida shakllantirilgan individual o‘xshatish va sifatlashlar adibning badiiy niyati bilan uyg‘unlashib, badiiyatni ta’minlashda aktuallik kasb etganligi adib yaratgan *O‘ratepaning sufrasidek; ilon tomonidan avralgan chumchuqdek; suxan gulistonining bulbuli kabi; kesak qisgan qovundek; yuzi misoli g‘alvirak bodom; teskari tushkan qozoqi kavshdek; ishonchli muttahamlar; chikkabel alvastilar; mukammal bir kambag‘alchilik* singari individual o‘xshatish va sifatlash konstruksiyalari tahlili misolida ochib berilgan;

kichik asarlar nutq stilistikasida so‘zlardagi fonologik o‘zgarishlar: og‘zaki nutqdagi unlilarning cho‘ziq talaffuz qilinishi, undoshlarning ikkilantirilishi, so‘zlarning buzib talaffuz qilinishi kabi fonografik vositalarning konnotativ semani yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, tasviriylik va obrazlilikni ta’minlashdagi hajviy-kinoyaviy ma’no ifodalash imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik asarlarda voqelangan leksik-semantik munosabatlar lug‘aviy birliklarning til tizimi ichidagi ma’no bog‘lanishining turli yo‘llarini ifodalaganligi, muallif bu vositalarning ham nutqiy, ham lisoniy ko‘rinishlaridan

o‘rinli foydalanib, ularni badiiy-estetik maqsadga yo‘naltirgan holda yangidan yangi uslubiy qo‘llanishlarni yuzaga keltirganligi dalillangan;

adib ko‘chim turlaridan foydalanishda ularning konnotativ-ifoda semalariga alohida e’tibor qaratganligi, bu semalarning badiiy mazmun kasb etishi va badiiy asarning umumg‘oyasi bilan uyg‘unlashuvi muallifning poetik til mahoratining bir qirrasi sifatida namoyon bo‘lganligi isbotlangan;

Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida leksik-semantik munosabatlar voqelanishining lisoniy tahlili, chegaralangan leksikaning qo‘llanishi hamda paremiologik, semantik-stilistik, fonografik vositalarning uslubiy imkoniyatlari tahliliga oid faktik material va nazariy xulosalar o‘zbek tili tarixi, o‘zbek tilshunosligi tarixi, o‘zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasi, stilistikasi sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr boshlari o‘zbek milliy tili va tilshunosligining muhim xususiyatlariga doir ma’lumotlarni kengaytirishi, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek tilshunosligi tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi hamda jadid adiblarining o‘zbek milliy tili, uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining shakllanishi va takomilidagi xizmatlarini ilmiy baholash uchun nazariy asos bo‘la olishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy o‘quv yurtlarining filologiya ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Badiiy tahlil asoslari” “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, “O‘zbek tili stilistikasi”, “Matn tilshunosligi” kabi o‘quv kurslarining dastur va darsliklarini tuzish hamda leksikologiyaga doir mavzularni rejalashtirishda manba vazifasini o‘tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulla Qodiriyning kichik asarlari lelksikasining ma’noviy-uslubiy xususiyatlari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida:

Abdulla Qodiriy ijodiy merosining tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslik yo‘nalishlarida o‘rganilishiga oid hamda adibning davr adabiy tilini shakllantirish borasidagi qarashlari tahliliga oid nazariy xulosalar va faktik materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030-raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 9-iyuldagi 01-1795-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, monografiyaning XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid qismi adabiy tur va

janrlar tahlili, ularning uslubiy koʻrinishlari, adabiy anʼana va oʻziga xoslikning namoyon boʻlishiga oid yangi maʼlumotlar bilan boyishiga erishilgan;

XIX asr oxiri XX asr boshlari oʻzbek adabiyotining yetakchi xususiyatlari, davrga xos boʻlgan adabiy tur va janrlar koʻlamining kengayishi, davr adabiy tilining oʻziga xos xususiyatlari hamda Abdulla Qodiriy yaratgan asarlar tilining davr adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyatini koʻrsatishga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 9-iyuldagi 01-1793-sonli maʼlumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan elektron platformada XX asr boshlari oʻzbek tilshunosligi, adabiyotshunosligiga oid maʼlumotlar, ulugʻ adib Abdulla Qodiriy milliy fenomeniga oid materiallar mukammallashuviga erishilgan;

kichik asarlardagi tashqi moddiy olam, milliy tafakkurning bogʻliqligi asosida shakllantirilgan individual oʻxshatish va sifatlash kabi vositalarning badiiyatni taʼminlashda aktuallik kasb etganligiga oid, shuningdek, davr adabiy tilida qoʻllangan leksemalarning yangi ramziy koʻchma maʼnolarda qoʻllanganligiga oid nazariy tahlillardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 9-iyuldagi 01-1793-sonli maʼlumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan elektron platformada XX asr boshlaridagi oʻzbek badiiy adabiyoti tilining yetakchi xususiyatlarini belgilashga erishilgan;

oʻzbek tilining tadrijiy taraqqiyotida jadid maʼrifatparvarlari yaratgan asarlarning oʻrni va ahamiyati, Abdulla Qodiriy yaratgan asarlarning milliy adabiy tilimiz rivojidagi lisoniy qiymati, ularning oʻrganilishi bilan bogʻliq ilmiy-nazariy xulosalardan “Oʻzbekiston” teleradiokanali DM tarkibidagi “Oʻzbekiston tarixi” telekanalida namoyish etilgan “Tarixiy savol”, “Mavzu”, “Aslida qanday?” telekoʻrsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“Oʻzbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 4-iyuldagi 02-06-813-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur telekoʻrsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan holda ilmiy dalillarga boy boʻlishi taʼminlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 13 ta, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

I bob **“O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilining ilmiy muammo sifatida o‘rganilishi”** deb nomlangan.

§ 1.1. “Badiiy asar tiliga oid tadqiqotlar tavsifi”. Bu paragrafda o‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili, leksikasiga oid tadqiqotlar tahlil qilinib, mustaqillikgacha bo‘lgan va O‘zbekiston mustaqillikga erishganidan keyingi davrda bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar qiyosan o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini tadqiq etish masalasi dastlab G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.Ahmedov, B.Bafoyev, X.Doniyorov, S.Mirzayev, B.Turdaliyev, A.Shomaqsudov va boshqa tilshunos olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan[11] bo‘lsa, o‘tgan asrning 70 – 80-yillaridan boshlab badiiy asar tili muammolari uslubiyatga bog‘liq holda o‘rganila boshlandi. Bu o‘rganishlar natijasida R.Qo‘ng‘urov, L.Abdullayeva, S.Karimov, I.Mirzayev, G.Boqiyeva, B.Yo‘ldoshev, B.Umurqulov kabi tilshunoslarning tadqiqotlari yuzaga keldi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda badiiy nutq va uslub tilining o‘ziga xosligini ta’minlashda leksik, leksik-semantik, grammatik vositalarning vazifalari, o‘rni va ahamiyati hamda badiiy asar tilining lingvistik tahliliga doir nazariy ma’lumotlar o‘z aksini topdi. Darhaqiqat, badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning mustaqillikgacha bo‘lgan va O‘zbekiston mustaqillikga erishgandan keyingi davrda yaratilganlari o‘zaro qiyoslansa, keyingi davrda yozilayotgan ishlar mavzusi, mundarijasi, tadqiq usuli, nazariy asoslari, ilmiy fikrni bayon qilish tarziga ko‘ra mukamallashganligini, takomillashganligini ko‘ramiz. Dissertatsiyada bu haqda batafsil ma’lumot berilgan.

§ 1.2. “Abdulla Qodiriy asarlari til xususiyatlarining o‘rganilishi”. Manbalardan aniqlanishicha, adibning milliy til, jonli so‘zlashuv tili, adabiy til va uning vazifaviy uslub ko‘rinishlari, til birliklarini uslublararo qo‘llash mahorati, nutq madaniyatini o‘stirish borasidagi qarashlari hamda badiiy asar tili ustida ishlash borasidagi amaliy faoliyati kabi masalalar o‘zbek adabiyotshunosligida ham, tilshunosligida ham o‘tgan asrning 20 – 30-yillaridan tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, tilshunoslik aspektida Abdulla Qodiriy ijodiy merosi

[11] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984; Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1976; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Дониёров Ҳ. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1972; Дониёров Ҳ., Мирзаев С. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Шомақсудов А. Муқимий сатирасининг тили. – Тошкент: Фан, 1971; Турдалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981.

tadqiq etilgan ishlarni shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin: 1. Adib ijodi bo‘yicha o‘zi hayotlik davrida va o‘tgan asrning 20 – 30-yillarida bildirilgan fikrlar. Bunga M.Shverdin, Sotti Husayn, Oybek, J.Sharifiy, O.Sharafitdinovlarning fikrlarini kiritish mumkin. 2. Abdulla Qodiriy rasmiy oqlangandan keyin uning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganilgan davr. Ya’ni, 1957-yildan to mustaqillikgacha bo‘lgan davr. Mazkur davrda Izzat Sulton, P.Qodirov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, I.Mirzayev, H.Qahhorova kabi tilshunos va adabiyotshunoslarning tadqiqotlari yuzaga keldi. 3. Mustaqillikdan keyingi davrda amalga oshirilgan tadqiqotlar. Mustaqillikgacha bo‘lgan davrda olib borilgan ilmiy kuzatishlarda adabiyotshunos va tilshunoslar, asosan, “O‘tkan kunlar” romani misolida adibning umumxalq tilini boyitish, unga sayqal berish, rivojlantirish yo‘lidagi harakatlari, o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati xususida o‘z fikrlarini bayon etganlar. Keltirilgan ishlarning aksariyatida adib asarlaridagi badiiylik talqiniga adabiyotshunoslik yo‘nalishida baho berilgan, biroq adib poetik mahoratining lisoniy asosi hali to‘laligicha tekshirish obyekti bo‘lgan emas. Abdulla Qodiriy asarlarining tilini tilshunoslik aspektida maxsus ilmiy tadqiq etish, asosan, mustaqillikdan keyin, aniqrog‘i, 2000-yillardan boshlandi. Z.Choriyeva, L.Djalolova, X.Qodirova, S.Ziyotova, M.Pardayeva, E.Abdurazzoqovlar tadqiqotida[12] kuzatilishicha, mualliflar Abdulla Qodiriy asarlarining o‘ziga xos tilini, aniqrog‘i, yozuvchining o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlaridan foydalana olish mahoratini yoritishga harakat qilganlar. Bunda ko‘proq yozuvchining “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari tili asosiy tadqiq obyekti bo‘lgan. R.Cho‘liyev tomonidan adibning kichik prozaik asarlari sirasida, asosan, hikoya va hajviyalaridagi leksikaning o‘z va o‘zlashma qatlam geneologik tarkibi, ularning statistik tahlili, lug‘aviy birliklarning vazifaviy-semantik xususiyatlari o‘rganilgan[13]. Aytish lozimki, yozuvchi yaratgan barcha asarlar tili o‘ziga xos bo‘lib, uni lingvistik tadqiq etish davr adabiy tili haqidagi ma’lumotlarni muayyan darajada boyitishga xizmat qiladi. Xususan, she’riy, hajviy asarlari, hikoyalari hatto tanqidlarga javob tarzida yozilgan maqolalari kabi kichik asarlarining tili ham o‘rganishga arziydi. Shuning uchun ham adibning “kichik asar” deya baholangan barcha asarlari tilini umumlashgan holda turli lingvistik aspektlarda tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

II bob **“Abdulla Qodiriy kichik janrdagi asarlari leksikasining semantik tahlili”** deb nomlanib, unda adibning she’riy asarlari, hajviya, hikoya va publitsistik maqolalari matnida qo‘llangan so‘zlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi, so‘z ko‘chimlarining nutqiy voqelanishi hamda chegaralangan leksikaning qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan.

[12] Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 156 б; Джалолова Л. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б; Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2012. – 135 б; Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док...дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б; Pardayeva M. Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok...diss. – Qarshi, 2023. – 116 b; Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok... diss. – Toshkent, 2023. – 131 b.

[13] Cho‘liyev R. Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlari leksikasi. Filol. fan. b. fals. dok...diss. – Buxoro, 2024. – 141 b.

§ 2.1. “*Kichik janrdagi asarlar matnida leksik-semantik munosabatlarning voqelanishi”*. Kichik asarlarda qo‘llangan leksik-semantik sinonimlarning o‘ziga xos qo‘llanishidagi ko‘rinishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1) geneologik tarkibi jihatdan arabcha, fors-tojikcha, ruscha-baynalmilal leksemalarning umumturkiy so‘zlar bilan bir sinonimik qatorda keltirilishi: *“Juda ham **katta**, juda ham **sha’sha’dor** bashorat. “Yangi sistem betaraflik” bashorati!”*[14]; *“...Sharqning butun ozodlig‘i ham shu imlo **siyosatig‘a** kelib bog‘lanur ekan. Bu kunda imlo **politikasi** Toshkandda jiddiy suratka kirib ketdi”* (TA,129); 2) sinonimik qatordagi turli uslublarga xoslangan leksik birliklarning bir matnda qator keltirilishi: *“Ammo ko‘rdik, ma’attassuf, na dramalik **nomiga**, na komediyalik **otig‘a** muvofiq bir asar uchrata olmadik”* (TA, 99); 3) adabiy me’yordagi ma’nodosh so‘zlarning arxaik variantlari bilan bir sinonimik qatorda keltirilishi: *“Turkiya – yer yuzining sultoni, ahli kuffordan boj xiroj oladir. Qahr-u g‘azabidan **zamin-u zamon, makin-u makon** titraydir”* (TA, 115); 4) adabiy tildagi juft so‘z komponentlarining sinonim tarzida qo‘llanishi: *“Birinchi may – bizni **shod va xandon** qiladir. Butun dunyo jahongirlarini xonavayron qiladir”* (TA, 198); 5) sinonimik qatorda xalq tili elementlarining keltirilishi: *“2100 tupdan iborat, Sobirjon abziyning o‘z tanlashi va **payvandi – yalg‘avi** bilan o‘sgan besh-olti yoshli olma daraxtlari bu obulning porloq istiqboli kabi go‘zal bo‘lib o‘sib yotadi”* (TA, 461); 6) adib ijodiy mahsuli bo‘lgan okkazional yasalmalarning bir sinonimik qatorda keltirilishi: *“Orsizlarning bu hollarig‘a biz **tomoshachi** – publiklarning ham insoniyat hislarimiz jim yota olmadi”* (TA, 132); 7) ma’nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil bo‘lgan iboralarning bir sinonimik qatorda berilishi: *“Ammo shunchalik davr-u davronlar o‘tquzilg‘an va o‘tquzilmoqda bo‘lg‘an bo‘lsa ham bunchalik ochub... tiss! **Yopig‘liq qozon-yopig‘liq... Tuya ko‘rdingmi – yo‘q**...”* (TA, 194); 8) leksik-semantik sinonimiyaning frazema va leksema ishtirorikida voqelanishi: “*Emdi Oxund domlamizning **og‘zi qulog‘ida, xursand**, “Din buzuvchi dahriy yoshlar!” degan jahr og‘zidan favvora urib chiqadir”* (TA, 118). Ko‘rinadiki, muallif kichik asarlar matnida aytmoqchi bo‘lgan fikrni ta’sirchan, o‘quvchi idrokiga tez va qulay tarzda yetkazish maqsadida leksik-semantik sinonimlarni turli leksik-grammatik shakllarda ifodalagan.

Muallif maqola, hikoya, hajviya va she’rlarida so‘zlarning funksional ma’nolari bilan sinonimik munosabatga kirishishi natijasida yuzaga kelgan matniy (kontekstual) yoki funksional-semantik sinonimlardan ham o‘rinli foydalangan: *“Ko‘bdan beri bunday qiziq kechalardan chetda – nuqul qayg‘u kechalari, kulfat vodiylarida kezib, buningdek kechalarga **mushtoq edim, tashna edim**”* (TA, 131). Keltirilgan matnda *mushtoq edim, tashna edim* ish-harakat leksemalari anglatgan semalari bilan tilda o‘zaro ma’nodosh hisoblanmaydi. Ma’noni kuchaytirish, kitobxonda zarur tuyg‘uni uyg‘otish maqsadida muallif *tashna edim* qo‘shma fe’lini *mushtoq edim* fe’li bilan matniy sinonimlikka olib kirgan.

Abdulla Qodiriy kichik janrdagi asarlarida zid ma’noli so‘zlardan unumli foydalangan. Xususan, yozuvchi shaxs-narsa va voqea-hodisalarni tasvirlash,

[14] Абдулла Қодирий. Диёри бакр. Танланган асарлар. V жилдли. III жилд (нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий). – Тошкент: Info Capital Group, 2017. – Б. 122. Bundan keyingi misollar ham shu manbadan olindi, TA qisqartma shaklida manba sahifasi qavs ichida ko‘rsatildi.

ularning sifat belgilarini aniq va obrazli qilib ifodalash, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni o‘tkir tanqid ostiga olish, obrazlarga xos xarakterlarni haqqoniy ko‘rsatishda lisoniy va nutqiy antonimlardan mohirona foydalangan. Masalan, “*Uzrim shul: tilasang **yig‘la** – tilasang **kul**!”* (TA, 223) gapida *yig‘lamoq – kulmoq* antonim leksemalari zidlik bilan birgalikda kinoya ma’nosini; “*Ikki firqa, ya’ni **boy** ulamo bilan **kambag‘al** benavo **jon berib, jon olmoqda** edi”* (TA, 120) gapida esa *boy – kambag‘al, jon berish*, *jon olish* kabi ham leksik, ham frazeologik antonimlarning bir matn tarkibida baravar qo‘llanishi ta’sirchanlikni yanada kuchaytirishga, bo‘yoqdor ifodalanishiga xizmat qilmoqda. Tilshunoslikda kontekstual antonimiya – lug‘aviy ma’nolarida zidlanish munosabati bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst ichida nutqiy talab taqazosi bilan “antonimlashuvi”ga nisbatan aytiladi. Bunday “antonimlashuv”, odatda, so‘zlovchi yoki asar muallifi tomonidan uslubiy maqsadlarda “kashf” etiladi[15]. A.Qodiriy kichik asarlar matnida mazkur “antonimlashuv” hodisasidan mahorat bilan foydalangan: *“Ikki qadoq deganning og‘zidan **o‘pking**, bir qadoqlikni **bo‘g‘ging** keladir* (TA, 81); *“Kelasidagi kulgilik bog‘imizning **bulbuli** emas – **zag‘izg‘oni**, **guli** emas – **tikoni** bo‘lmog‘imni-da iqror etaman* (TA, 223); *“**To‘g‘ri** ko‘chadan aljib, **lo‘li** ko‘chasiga burildingiz va shuning ila dovdiragan matbuotimizni qovjiratdingiz…* (TA, 244). Ushbu misollardagi *o‘pmoq* va *bo‘g‘moq*, *bulbul* va *zag‘izg‘on, gul* va *tikon* hamda *to‘g‘ri* va *lo‘li* leksemalari aslida (lisonda) antonimlar emas, ammo dastlabki misolda *o‘pmoq* va *bo‘g‘moq* fe’llari muallifning leksik qo‘llashi natijasida *yaxshi ko‘rmoq* va *yomon ko‘rmoq* ma’nolarini, keyingi misollarda *yaxshi* va *yomon* ma’nolarini ifoda etib, kontekstual antonimiyani hosil qilgan.

Kichik asarlarda graduonimiya – leksemalarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgining darajalanishi ham lisoniy va nutqiy hodisa sifatida voqelangan. Muallif bunday leksemalardan asar ta’sirchanligini oshirishda unumli foydalangan. Masalan: *“Albatta, musulmonning olchozlik rizqi **har kun, har soat, har daqiqa** xudo tomonidan yetib turar ekan”* (TA, 181). Keltirilgan misoldagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning semantikasida sifat belgilarining o‘sib borish yoki kamayib borish munosabati mavjud va matnda ular lisoniy darajalanishni yuzaga keltirgan. Nazmiy, nasriy yo‘nalishdagi kichik asarlar matnida, nafaqat, leksik sathda namoyon bo‘ladigan odatdagi lisoniy darajalanish hodisasi, balki nutqiy darajalanish, gradatsiya hodisasi ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan:

*O‘g‘limizga na **adab,** na **fan,** na **yaxshi so‘ylamak**,*
*Na xudoni buyrug‘i bo‘lgan **ulum** o‘rgotamiz …* (TA, 9).
Oqilo fikr aylag‘il, ki na ishlayur ahli vatan,
*Qaysi **fosiq,** qaysi **johil**, qaysisi bo‘ldi **chapan** …* (TA, 11).

Adibning ilk ijod namunalaridan bo‘lgan “Ahvolimiz”, “Fikr aylag‘il” nomli she’rlaridan olingan mazkur misollarda keltirilgan *adab – fan – yaxshi so‘ylamak – ulum* leksemalarining; *fosiq – johil – chapan* leksemalarining denotativ ma’nosida, semantik tabiatida lisoniy jihatdan sifat belgilarining o‘sib borish yoki kamayib borish munosabati mavjud emas. Biroq muallif ularni bir matn ichida qatorlashib

[15] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 288.

ma’noning kuchayib borishini ta’minlamoqda. Yuqorida kuzatganimizdek, kichik asarlar matnida lug‘aviy birliklararo leksik-semantik munosabatlarning tasvir vositasi sifatida o‘ziga xos tarzda voqelanganligi ulug‘ adibning yuksak badiiy-estetik tafakkur egasi ekanligini isbotlaydi.

§ 2.2. “Kichik janrdagi asarlar matnida konnotatsiyaning nutqiy voqelanishi”. Abdulla Qodiriy yaratgan kichik asarlar tilini leksik planda tekshirish, leksemalarning ifoda xususiyatlarini aniqlash shu narsani ko‘rsatdiki, muallif tomonidan qo‘llangan so‘zlarning ayrimlari o‘z denotativ ma’nosida emas, balki nutqning ta’sirchanligini oshirish, ma’noni kuchaytirish, obrazli ifodalash maqsadida turli ko‘chma ma’nolar hosil qilgan. Jumladan, metaforik ko‘chimlarni ilmiy manbalarga asoslanib quyidagicha tasniflash mimkin: 1) inson va unga tegishli (xos) bo‘lgan (tana a’zosi, kiyimi) predmet nomi, ish-harakat o‘xshashligi asosida hosil qilingan metaforik ko‘chimlar, ya’ni antropomorfik metaforalar: *“Mushtum” hammadan ilgari* ***tanparastlik*** *(tanini semirtirish) qayg‘usida. Tuzsiz va mazasiz oshlar bilan bo‘lsa-da,* ***qornini*** *to‘ldirib qappaymoqchi, sakkiz sahifani saksonga yetkizmoqchi”* (TA, 291); 2) hayvonlar va ularning tana a’zolari, ularga xos belgi-xususiyat nomini ifodalovchi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi, ya’ni zoomorfik metaforalar*: “Nikolay davrida turkistonliklar* ***temiryo‘l cho‘chqalaridan*** *qanday turtilgan-surtilgan bo‘lsalar, 23-yilda ham undan battarroq turtila bersunlar”* (TA, 166); 3) daraxt, o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma’nosining ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan metaforik ko‘chimlar, ya’ni fitomorfik metaforalar: *“Bu holda bu ishka tadbirsiz bo‘lmak, endigina yo‘lga qo‘yilgan ibtidoiy maktablarimizga o‘tquzilgan* ***millat gullari*** *uchun bir jinoyat bo‘lur”* (TA, 84); 4) diniy-afsonaviy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar asosida yuzaga kelgan metaforik ko‘chimlar, ya’ni teamorfik metaforalar: *“Millatning sof va toza miyasini sitib olib, o‘rniga hayvon miyasi o‘rnashtirgan* ***oq sallalik devlarni*** *bir chuqurg‘a tiqib, ustiga maorif va madaniyat asosini qursak, qanday ur-yiqit bazm bo‘lar edi”* (TA, 178); 5) hissiyotlar bilan aloqador bo‘lgan assotsiatsiyaga asoslangan metaforik ko‘chimlar: *“O‘zim, “Mushtum”da* ***dag‘al-dag‘al, qo‘lansa-qo‘lansa*** *so‘zlar yozishg‘a va’da berganim holda ushbu o‘rtoqlarni ham topsalar bitta-bitta, topmasalar uchta-to‘rtta chirmanda pul bilan ko‘makka chaqiraman”* (TA, 210).

Adib yaratgan kichik asarlar matnida metonimiya hodisasi, asosan, gap tarkibidagi biror bo‘lakning ellipsisga uchrashi natijasida yuzaga kelgan nutqiy metonimiyalardir. Grammatik tarkibi jihatidan qaratqich-qaralmish tipli birikmalarda biror komponent ellipsisga uchragan va metonimik ko‘chim hosil bo‘lgan. Bu lingvistik hodisaning hosil bo‘lishi, semantikasi quyidagicha:

a) belgisiz qaratqich-qaralmishdan anglashilgan aholining yashash o‘rnini ifoda etgan: *“Qishloq tinch uyguda. Olamni to‘p gum-gumi bosg‘an edi”* (TA, 299). Bu gapdagi *“qishloq xalqi”* qaratqichli birikmaning qaralmish komponenti hisoblangan “*xalqi”* so‘zi ellipsisga uchragan, uning ma’nosini *qishloq* so‘zi ifoda etib kelgan; b) belgisiz qaratqich-qaralmishdan anglashilgan obyektning egasi, yaratuvchisi ma’nosini ifoda etadi. Qaralmish ellipsisga uchragach, birikma ma’nosi qaratqichda o‘z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, muallifning nomi asarning nomi o‘rnida qo‘llangan: *“Alo hozal-qiyos “Chahor kitob”, “So‘fi*

Olloyor”, “Xo‘ja Hofiz”larni gohi volidadin va gohi padardin o‘qub, yoshim o‘n olti-o‘n yettilarga yetdi (TA, 374); d) ellipsis natijasida qaratqichli birikmaning qaratqichi tushirilishi. Bunda birikmaning qaralmish komponenti nutqda saqlangan, biroq uning *-si (i)* egalik affiksi tushirib qoldirilgan: “*Domlamiz masti loya’qil, hozir domlag‘a Nekalay zolim, Kerenskiy odili a’dal, ukazning ham bir tiyinlik qiymati yo‘q, tilasa, mudarris, tilasa, qozi, tilasa,* ***do‘ma!”*** (TA, 34). Ajratib ko‘rsatilgan misolda *“duma”* so‘zi *“davlat dumasi”* qaratqichli birikma ma’nosini ifodalamoqda, ellipsis natijasida birikmaning qaratqichi, ya’ni *“davlat”* so‘zi hamda *-si* grammatik ko‘rsatkichi tushirilgan.

Kuzatishlarimiz Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida sinekdoxa asosidagi ko‘chimning quyidagi ikki ko‘rinishi mavjudligini ko‘rsatdi:

1. Bir predmetning nomi sifatida unga xos biror qism nomining ishlatilishi. So‘zning hosil qiluvchi ma’no a’zosi bo‘lak bo‘lib, hosila ma’no butunni ifodalashi bilan bunday ko‘chim yuzaga keladi: *“Jurnalimiz shu keyingi* ***qo‘li qadoqlar*** *sinfining “Mushtum”i bo‘lg‘onlig‘idan uning ma’nosi ham haligi ta’rifning tamoman teskarisidir”* (TA, 184); *“Nabi qizil boshning* ***samovariga*** *bir kelchi, pajalska!”* (TA, 379); *“Haqiqat uchun bel bog‘lagan* ***yosh miyalar*** *haligi afsonago‘y, oq sallalik “olijanob devlar” bilan panja ba panja olishmoqdalar”* (TA, 178). Yuqorida keltirilgan jumlalardagi *qo‘li qadoq, yosh miya* birikmalari, *samovar* leksemasi sinekdoxa usulidagi ko‘chim sanaladi. Bunda *mehnatkash, dehqon* leksemasidagi ma’no uning qismi hisoblangan *qo‘l* leksemasi orqali; *choyxona* leksemasining ma’nosi *samovar* so‘zi orqali; *yoshlar* leksemasi ifodalangan ma’no esa inson tana a’zosi hisoblangan *miya* so‘zi orqali ifodalangan.

2. Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o‘z ichiga olgan butun nomining qo‘llanishi. Bunda so‘zning ko‘chma ma’no hosil qiluvchi a’zosi butun bo‘lib, u orqali bo‘lak ifodalanadi: *“Lekin endi yetti yildirki, na davlatdan xabar bor, na qornim to‘yib tomoq yegan kunimni eslay olaman. Ungacha* ***besh qo‘lim*** *og‘zimda edi”* (TA, 230); Gapdagi *besh qo‘l* so‘zi *beshta barmoq* hosila ma’nosida qo‘llangan. Bu o‘rinda butun nomi bilan bo‘lak anglashilgan. Kichik asarlardagi sinekdoxik ko‘chimlar tahlili bu hodisaning katta umumlashtiruvchilik imkoniyatiga ega ekanligini, umumlashtirish qisqalikning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida takrordan qochishga, yaqinlik ma’nosini ifodalashga, ayrim ma’nolarni ta’kidlashga xizmat qilganligini, so‘zlarning bu tarzda yangi tushunchalarni ifodalashi til rivoji uchun juda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi.

§ 2.3. “Kichik janrdagi asarlar matnida chegaralangan leksikaning nutqiy voqelanishi”. Bu paragrafda qo‘llanish hududi yoki qo‘llanish kasb-koriga ko‘ra ma’lum cheklanishlar kuzatiladigan leksemalar: dialektizmlar, okkazionalizmlar hamda neologizmlar tahlilga tortilgan. Dialektizmlarning uslubiy imkoniyatlari, semantik-stilistik vazifalari matn doirasida aniqlashadi. Bunda yozuvchi muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida dialektal so‘zlarning o‘ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatidagi vazifasidan badiiy tekstda ma’lum darajada foydalanadi. Adibning hikoya, maqola, hajviyalarida qo‘llangan leksik, frazeologik dialektizmlar ham asar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan: *“Ayniqsa, uning* ***chigaldak*** *bir qog‘ozni og‘ziga solib, hech bir poyonsiz uzun qilib og‘zidan chiqaruvi bizni hayron qoldirar edi”* (TA, 106); *“Turkiston statistiqa idorasining*

keyingi yig‘gan hisobiga qarag‘anda, ishtonsizlar ***bana’ji*** *ko‘payibdirlar”* (TA, 170); *“Yozay desam, oshna-og‘aynining sho‘rtumshuqlig‘idan, yozmay desam, “Mushtum”* ***jeznaning jekirigidan*** *qo‘rqaman”* (TA, 171); *“Ba’dazon yuzimni qiblaga qaratib Maskovning shunday* ***balonishin*** *(baland) yeridan uy olib, menga o‘xshgan nimjonlarni* ***ramaqijonlik*** *(juda ozgan, to‘zgan) darajasida yetkazganning haqqiga duo qilaman”* (TA, 259). Misollardagi *chigildak (o‘ralgan), bana’ji (behad, hisobsiz), jezna (pochcha), jekirig (do‘q, po‘pisa), balonishin (baland), ramaqijonlik (juda ozgan, to‘zgan)* leksemalari dialektizmlar hisoblanib, ular matnda o‘z denotativ ma’nosidan tashqari, turli konnotativ ma’nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Kichik asarlarda adibning anologiya asosida qo‘llagan individual, shaxsiy yaratiqlari hisoblangan frazeologizmlar ham uchraydi: *“Shuning uchun faqat mengina temirchini ko‘rganda* ***qovog‘imning to‘qimini solib***, ***tumshug‘imni bir yarim qarich osiltirib*** *javob bermas edim”* (TA, 308); *“****Gap ko‘p – qalam to‘mtoq, ishtaha karnay – palov bedarak,*** *otimiz ulug‘ – suframiz qurug‘... kabi yuqori-quyi gaplar bilan mavzuni ikkinchi vaqtg‘a qoldiramiz”* (TA, 214).

Kuzatishlarimiz kichik asarlarda uchraydigan okkazionalizmlarning barchasi derivativ, ya’ni affiksatsiya va kompozitsion usulda noodatiy yasalgan lisoniy birliklar ekanligini ko‘rsatdi. Muallif publitsistik maqolalari, hajviya va felyetonlarida tildagi mavjud yasalish andozalariga to‘g‘ri keladigan, lekin o‘zbek tili so‘z yasash me’yoriga mos kelmaydigan okkazional birliklarni ham qo‘llagan: *“Qorong‘ida timirskilanib zanjirni topdi. Taajjublandi, chunki zanjir ochiq edi.* ***Mashaqqatlanib*** *tomga chiqib yugurganiga* ***pushaymonlandi****”* (TA, 67); *“Agarda darkor boshad lofni* ***gazetchila****r ursin, adovat donasini* ***ahmoqchilar*** *sochsin!”* (TA, 311); *“Jasorat* ***bug‘magarlarining*** *oyoqlaro osmondan, til qassoblarining manfur gavdalari jahannam tegidan keldi”* (TA, 148). O‘zbek tili so‘z yasalish tizimida *-lan* affiksining otdan fe’l yasashi mumkin holat, biroq mavhum otlar *mashaqqat, pushaymon* leksemalariga yasovchi vosita sifatida qo‘shilib fe’l yasashi kuzatilmaydi. Shuningdek, shaxs oti yasovchi *-chi* morfemasining ham *gazeta, ahmoq* so‘zlariga qo‘shilib yangi yasalmani hosil qilishi norma sifatida uchramaydi. Demak, bu yasalmalar muallifning individual uslubiga xos yasalishlar natijasidagi okkazional birliklardir.

Kichik asarlar matnida qo‘llangan neologizmlarning aksariyati umumtil neologizmlari hisoblanib, ularning hosil qilinishi, yaratilishidagi lisoniy belgilar, xususiyatlar asosida quyidagicha guruhlash mumkin: tildagi mavjud leksik birliklar va grammatik qonun-qoidalar asosida yasalgan neologizmlar: *osmon popuri (samalyot), qiziq kechasi (komediyali spektakl), lo‘ttichi (fokuschi)*; tildagi mavjud so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirish asosida yuzaga kelgan neologizmlar: *istirohat (otpusk), kat (kravat)*; o‘zlashma leksik birliklarni kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan neologizmlar: *muzayi milliya (milliy muzey), baynalxalq (baynalmilal)*; o‘zlashma leksik birlikning fonetik tuzilishi, morfologik tarkibiga o‘zgartirish kiritish orqali hosil qilingan neologizmlar: *gazarma (TA, 244), tiyotru (TA, 233), gaznit (TA, 283), targovska (TA, 376), minovat (TA, 302), zakun (TA, 308), kavantir (TA, 360), prosant (TA, 69), istatistiqa (TA, 136), iftrogovoy (TA, 154)* kabi. Tahlilga tortilgan neologizmlarning kichik asarlar tilida bajargan

uslubiy vazifasi rang-barangdir. Muallif tomonidan qo‘llangan ilmny-texnik, rasmiy adabiyotlardagi umumtilga xos neologizmlar, asosan, nominativ funksiyani bajargan bo‘lsa, ayrimlari kichik asarlar matnida badiiy vosita sifatida muayyan stilistik maqsadga yo‘naltirilgan.

III bobda **“Kichik janrdagi asarlar leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari”** yoritilgan.

§ 3.1. “Fonetik vositalar orqali ifodalangan leksik birliklar uslubiyati”. Abdulla Qodiriy yaratgan kichik asarlarda qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursandchilik, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo‘llab-quvvatlash kabi turli ruhiy holatlarni aynan ifodalashda so‘zlardagi fonologik o‘zgarishlar asosidagi fonografik vositalardan unumli foydalanilgan. Kuzatishlarimiz asosida kichik asarlarda qo‘llangan bunday fonostilistik vositalarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Yozuvda unli tovushlarni birdan ortiq keltirish. Kichik asarlar matnida unlilarni cho‘zish orqali asar qahramonlarining voqelikka munosabati, tasvirlanayotgan voqea-hodisa quyidagicha ifodalangan: a) belgining ortiqligi – *“Xayr nima bo‘lsa ham, aytay: “Sharq” sahnasi bilan “To‘ron”ning to‘rtta karnayi **g‘a-a-a-a-at, g‘a-a-a-a tu-u-u-g‘a-a-aat!** G‘art-g‘art! Ha tovushing o‘chkur, ha egasiz qolgur!* (TA, III, 155); b) belgining kuchsizligi – *“Ko‘rungan yer oq salla, oq bo‘lsa ham, bo‘sh kalla, oq-u qora ham malla – Turkiston ulamolariga **salo-o-om!”*** (TA, III, 156); d) hayratlanish ma’nosini ifodalash uchun – ***“O‘ho‘-o‘- o‘...**bolshevik! Yer yutsin, yer yutsin! Dinni bilmasa, boy va ulamoni yer bilan yakson qilmoq talisa. Mol-mulkni mushtarak deb bilsa!..”* (TA, III, 34); e) tinglovchi e’tiborini jalb qilish uchun – *“Barakalla, bolshevoyingga, balli, xo‘b qilibti-da! Oq podshohligini burnidan chiqaripti... xoh, xoh, xoh, **xo-o-o...”*** (TA, III, 45); f) taajjublanish ma’nosini ifodalash uchun – *“– **H-a-a-a**, hoji pochcha judayam pes ekan. – Mulla burtul nima deydi?”* (TA, III, 139); g) chaqirish, xitob ma’nolarini ifodalash uchun – *““Mushtum”ga ko‘maklashish tilagida bo‘lg‘an **ho-o-o-ov** eldagi og‘alar! Menga tomon bir qaranglar!”* (TA, III, 210).

2. Undosh tovushlarga xos uslubiy imkoniyat va xususiyatlar. Kichik asarlarda muallifning ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan asar qahramonlarining ichki ruhiyati va holatini kitobxonga aynan yetkazishda undoshlarni birdan ortiq yozish vositasidan ham unumli foydalanganligi kuzatiladi. Bunda quyidagi ma’nolar ifodalangan: harakatning davomiyligi – *“Yarim soatlik qonli **“g‘ov-v-v-v, g‘u-v-v-v, ov-v-v-v-v, ov-v-v-v”**dan so‘ng Mallaxonning davangisi mag‘lub bo‘lib, faje’ bir suratda yaralandi* (TA, III, 157); ovoz kuchining pastligini ifodalash – *“Ammo shunchalik davr-u davronlar o‘tquzilg‘an va o‘tquzilmoqda bo‘lg‘an bo‘lsa ham, bunchalik ochub –... **tis-s-s**! Yopig‘liq qozon-yopig‘liq... tuya ko‘rdingmi – yo‘q...* (TA, III, 128); hasratlanish ma’nosining ifodalanishi – *“Mag‘zava qori ko‘ngilning eng chuqur joyidan chiqarib, **uf-f-f** dedi va hasratidan chang chiqara boshladi* (TA, III, 173); ta’kid, qahr-g‘azab ma’nosini ifodalash uchun – *“**Ey-y-y,** mushtuming toshqa tegsun, ro‘zaga til tegizdi! – deb “Mushtum”ning ro‘za no‘mirlaridan tarvaqaylashganlar, **ov-vozlaringni** o‘chiringlar!”* (TA, III, 176); kesatiq,

ikkilanish, esankirash ma’nosining ifodalanishi – *“ – **Xo‘sh-sh-sh** o‘rtoq, nima qilib yuribsiz? – Mudir: **imm-m-m...*** (TA, III, 25).

3. So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Kichik asarlarda muallif nutqida, personajlar nutqida turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar, asosan, o‘zlashma so‘zlarni buzib talaffuz qilish holati kuzatiladi. Bu holat so‘zlovchining o‘zlashgan so‘z imlosini to‘g‘ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamasligi natijasida yuzaga kelgan, deb izohlash mumkin. Muallifning mazkur usuldan hajviya va felyetonlarda qahramon nutqini individuallashtirish hamda badiiy ifodani og‘zaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalanganligi seziladi. Hajviya va felyetonlarda ayrim o‘rinlarda kulgi qo‘zg‘atish, kinoya, piching ma’nolarini ifodalash maqsadida so‘zlar atayin buzib talaffuz qilingan va o‘sha tarzda yozilgan, turli konnotativ ma’nolar matnga singdirilgan: *“Xabaring yo‘q hali, Mahkam polvon, kecha ispolqo‘midagi hizimkashlarning **“kanasirtiga”** borub qolubman... sanga yolg‘on Xudoga chin”* (TA, III, 364); *“Kecha mahallaga borg‘an edim, Mahkam polvon. Bittasi kelib, sizni **komasiya** chaqiradi, deydi. Bordim **komassiyasi** qo‘limg‘a bir nosvoy qog‘ozni berdi”* (TA, III, 367). Umuman olganda, leksema ifoda etgan konnotativ ma’nolarda personajlar nutqini individuallashtirish, voqelikni to‘liq va to‘g‘ri aks ettirish ustuvorlik qiladi. Kuzatganimizdek, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish jarayonida ifodalanayotgan konnotativ ma’no ularning paradigmatik va sintagmatik munosabatida yaqqol namoyon bo‘lgan. Shuningdek, grammatik shakllarning turli xil talaffuzida ham kuchli ohangdorlik, arxaik va dialektal mansublik kabi konnotativ ma’nolar o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, muallifning hajviyalarida fonetik o‘zgarishli grammatik shakllar rang-barangligi sababli ulardagi konnotativ ma’nolar kuchli ifodalangan

§ 3.2. “*Semantik-stilistik vositalarning funksional-uslubiy imkoniyatlari”*. Ushbu paragrafda kichik asarlarda ta’sirchanlik va bo‘yoqdorlikni oshirish uchun qo‘llangan o‘xshatish, sifatlash kabi semantik-stilistik vositalarning vazifaviy, uslubiy va shakliy o‘ziga xos belgi-xususiyatlari o‘rganilgan. **O‘xshatish –** ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdir. Tropning bir ko‘rinishi sifatida o‘xshatish adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Uning ifodalanish usullari, struktural tuzilishini o‘rganish, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va nihoyat, umuman, u til fakti sifatida tilshunoslikning ham obyekti hisoblanadi[16]. Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida qo‘llangan o‘xshatishlar ikki guruhga ajratib tahlil qilindi: 1. Individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar. Badiiy nutq va uslubda yozuvchi mahoratining bir qirrasi xalq tili unsurlaridan foydalangan holda obrazlilik, ekspressislik yorqin ifodalangan, badiiy-estetik ehtiyoj tufayli original o‘xshatishlarni yuzaga keltirganligida ko‘rinadi. Ulug‘ adib ham kichik asarlarida o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq tarzda xilma-xil original o‘xshatishlarni yaratganki, bu o‘xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan voqea-hodisa, narsa-predmet haqidagi tasavvurni o‘quvchi ongida aniq, yaqqol gavdalantirishga xizmat qilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Masalan: *“Xullaski,*

[16] Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – Б. 62.

o‘rtog‘im mulla Akmaljon menga noma’qul kelaturgan gaplardan so‘zlar edi. Men ***quyoshda jiling‘an baqadek, otga qoqqan taqadek*** *uning o‘g‘ziga tikilgan edim”* (TA, III, 276). “Mushtum” jurnalining 1925-yil 15-oktyabrdagi 18-sonida Ovsar taxallusi bilan e’lon qilingan “Toshkand firqa kanferensiyasini tomdan ko‘rdim” nomli hajviyadan olingan mazkur parchada ruhiy, jismoniy holat-xususiyatni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantirishda *quyoshda jiling‘an baqadek; otga qoqqan taqadek* o‘xshatishlari muallif tomonidan yaratilgan. Odatda, o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida *-dek, -day, kabi, singari, yanglig‘* birliklari qo‘llanishi kuzatiladi. Kichik asarlardagi o‘xshatishlarda shakliy ko‘rsatkichlar qo‘llanishida ham o‘zgachalik ko‘rinadi. Bunda *-cha, -liq* affikslari, *qadar, bo‘lib, misli, misoli* birliklari shakliy ko‘rsatkichlar vazifasida voqelangan: *“Negakim, ul janob* ***“donishmandcha olim”*** *bo‘lgani uchun men tushunushni istamaydur” (TA, III, 107); “O‘shal vaqt Domlamizning butun a’zosi* ***til bilan o‘ngarib bo‘lmasliq lazzat bilan*** *jimirlashib ketti” (TA, III, 33); “Moskov – markaz, uning binolari ham yetti-sakkiz qavat, osmoni keng manga o‘xshaganlar* ***“ayroplon bo‘lib”*** *uchadir!” (TA, III, 207); “Bir-birisi bilan o‘ynashib, shayarib qaytg‘an tatar qizlarining* ***kumush tanga to‘kilgan misoli*** *jaranglab kulishlari yurakka to‘qinadur” (TA, III, 460).* 2. Umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar. Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi[17]. *“Vaqtiki, faqir ahvolim turli kasalliklar ila* ***it g‘ajigan oshiqdek*** *bo‘lib qolgon bo‘lsa-da, shul ahvolda volidayi mehribonimning bag‘irlarida* ***qog‘ozga o‘ralgan qantdek*** *parvarish topar edim”* (TA, III, 303). Keltirilgan misolda *it g‘ajigan oshiqdek – qog‘ozga o‘ralgan qantdek* o‘xshatishlari xalqimizning milliy obrazli tafakkuri mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan, milliy idrokni aks ettiruvchi qurulmalardir. Matnda ayni shu an’anaviy o‘xshatishlar bir-biriga zidlashtirilgan holda qo‘llangan, kuchli kontrast yuzaga keltirilgan.

Kichik asarlar matnida keng qo‘llangan leksik-stilistik tasvir vositalaridan yana biri **sifatlash (epitet)dir**. Sifatlash keng ma’noda predmet belgilaridan birini kuchaytirish va shu orqali kitobxon diqqatini jalb etish hamda ifodaviylikni oshirish maqsadida qo‘llanadigan poetik usul sanaladi[18]. Abdulla Qodiriyning she’riyati, hikoya, felyeton, hajviya va publitsistik maqolalarida o‘quvchining har bir narsa va holat haqidagi tasavvurini boyitishda, tasvir predmetining muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishda sifatlashning uslubiy imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Kichik asarlarda umumtil sifatlashlari keng qo‘llangani holda, adibning individual uslubiga xos obrazli metaforik sifatlashlar ham ko‘p uchraydi: *“Shaharda mashhur* ***ishonchli muttahamlardan*** *iborat komissionniy magazin*

[17] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 6.

[18] Воронова А. Эпитеты и определение в языке Камоэнса: Автореф. дисс. канд... филол. наук. – Москва, 1999. – 26 с.

ochildi. Dunyoda bor hamma narsalarni, masalan: odam, qumg‘on, jovli, toshbaqa, qurbaqalarni sotib bermakka qabul qiladur” (TA, III, 119). “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 17-maydagi sonida chop etilgan “Komissionniy magazin ochildi” nomli hajviyadan olingan mazkur parchadagi *ishonchli muttahamlar* sifatlovchi-sifatlanmish qurilmasi original qo‘llanishdir. Birikmadagi sifatlanmish komponenti salbiy ma’noga ega, ya’ni “MUTTAHAM – *oldi-berdi masalalarida nopok, firibgar, qallob odam”* (O‘TIL, II, 655). Sifatlovchi komponent – ISHONCHLI leksemasi esa o‘zida ijobiy semani aks ettiradi: “*ishonsa bo‘ladigan, pand bermaydigan odam”* (O‘TIL, II, 258). Demak, bu qurulmada ijobiy va salbiy ottenkaga ega bo‘lgan leksemalar sifatlovchi-sifatlanmish modelida zidlash orqali o‘ziga xos tarzda, mohirona voqelantirilganki, bu sifatlash fikrning emotsional ta’sirchanligini kuchaytirgan, kitobxon ko‘z o‘ngida voqea qahramonini ortiqcha izohlarsiz gavdalantirgan. Adibning hajviya, felyetonlarida individual qo‘llanishdagi quyidagi epitetlar ham uchraydiki, yozuvchi uslubi bilan bog‘liq bunday o‘ziga xos birikmalarning lisoniy imkoniyati nutq kechimida namoyon bo‘lgan: *mukammal bir kambag‘alchilik (TA, III, 120); bo‘yni xurmachaning bo‘g‘ziga tenglashgan akalar (TA, III, 175); sudratma chopon, yopma salla akalar (TA, III, 208); boylar dumi, kapital xurjuni bo‘lg‘an teskari matbuot (TA, III, 259).* Adib kichik asarlarda har bir narsa va holat haqidagi tasavvurni boyitishda, o‘z tasvir predmetinining muhim xususiyatlarini ko‘rsatishda sifatlash badiiy san’atining eng go‘zal namunalaridan foydalangan.

§ 3.3. “Paremiologik birliklarning funksional-uslubiy imkoniyatlari”. Bu paragrafda Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnidagi frazema, maqol va aforizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari, maqola, hajviya kabi asarlarning badiiy ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Kuzatishlarimiz Abdulla Qodiriyning she’riyati, publitsistik maqolalari, hikoya va hajviyalarida frazeologik iboralar, ayniqsa, maqollarning ko‘plab uchrashini ko‘rsatdi. Kichik asarlar matnida qo‘llangan frazemalarning umumiy soni 226 ta. Ularning 113 tasi adabiy tilda hozirda iste’molda bo‘lgan frazemalardir. 36 ta frazema variantlanish natijasida yuzaga kelgan, 77 ta frazema esa muallif tomonidan yaratilgan. *“Emdi Oxund domlamizning **og‘zi qulog‘ida**, “din buzuvchi dahriy yoshlar!” degan tovush og‘zidan otilib chiqar”* (TA, III, 34); *“Alar sizning har bir to‘g‘rida ishlab yetkurajak yordamingizni **to‘rt ko‘z ila kutmoqdalar**”* (TA, III, 75); *“Bola-chaqalik bir yigit o‘ldig‘imdan Toshqun og‘aning boyagi so‘zi manim **yaramga tuz sepdi**”* (TA, III, 77). Misollarda keltirilgan *og‘zi qulog‘ida; to‘rt ko‘z ila kutmoq; yaraga tuz sepmoq* kabilar xalq tilida keng iste’molda bo‘lib kelgan lug‘aviy birliklardir. Ulardan foydalanish adib kichik asarlari tiliga badiiy ta’sirchanlik, lo‘ndalik, qisqalik bag‘ishlagan.

Kichik asarlarni lingvistik o‘rganishimiz adib tomonidan yaratilgan yoki qayta ishlangan (transformatsiya qilingan), adabiy tilda keng iste’molda bo‘lmagan, mavjud lug‘atlarda qayd etilmagan frazeologik birliklar mavjudligini ham ko‘rsatdi: *oramizga cho‘p tushgan (TA, III, 235); o‘rgumchakka uya bo‘lib yotmoq (TA, III, 110); yosh bolaga tatti yalatish (TA, III, 143); birovni tishkovlagichidan xazar qilmaydigan (TA, III, 189); yaratilg‘anicha qolg‘on (TA, III, 228); voy-voyagi bola ochqan (TA, III, 221)* kabi. Bu kabi iboralarning

aksariyati xalq tilidagi frazeologik modellar asosida muallif tomonidan yaratilgan, adabiy til sistemasidan tashqarida bo‘lgan, adabiy norma sifatida qabul qilinmagan frazemalar sanaladi. Biroq ularning uslubiy qo‘llanishi chegaralangan bo‘lsa-da, muallif mahoratini ko‘rsatuvchi muhim lisoniy birlik sifatida kichik asarlar matnida voqelantirilgan.

Abdulla Qodiriy yaratgan kichik asarlar tilidagi tasviriy vositalarning asosiylaridan biri xalq maqollari hisoblanib, ularni tahlil qilish kichik asarlar tili va uslubini belgilovchi muhim lingvistik omillardan biri haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Adibning kichik asarlari hajm jihatdan katta bo‘lishiga qaramasdan, qo‘llangan maqollar miqdorining salmog‘i frazemalar singari ko‘p emas, jami 177 ta. Shundan, 88 ta maqol adabiy tildagi varianti bilan aynanlik kasb etadi. Kichik asarlar tilida uchragan maqol va hikmatli iboralar uch xil xususiyatga ega: 1) Aynan, o‘zgarishsiz foydalanilgan maqollar: *“‘**Man qilaman o‘ttuz, tangrim qiladi to‘qquz!”** Bu so‘z bizning yangi yilda davom etaturg‘on ibtidoiy makatablarimizg‘a juft tushkay edi”* (TA, III, 143); ***“Bandaning boshi – Ollohning toshi,** – deydilar. Biringiz Abdulqafo‘ vallohi azim, ikkinchingiz – shaftoli qoqi do‘st bedanam”* (TA, III, 199). 2) Mazmuni saqlangani holda, shakli qisman o‘zgartirilgan maqollar: *Oynadan achchig‘lanib yalqashma* (*Afting xunuk bo‘lsa, oynadan o‘pkalama*), *Mis qozonga loy tuvoq* (*Qum qozonga loy tuvoq).* 3) Abdulla Qodiriyning o‘zi yaratgan maqol va hikmatli iboralar. Kuzatishimizcha, ularning miqdori 56 ta. Bu birliklarni adibning o‘z ijodiy izlanishlari natijasi sifatida baholash mumkin: *“Ey o‘g‘lim, odam bo‘lgandan keyin har narsaning ham boshida bo‘lish kerak, **“non qo‘ynimda, it keyinimda!””*** (TA, III, 47); *“Birov **“kalning tanig‘ani sho‘ra”** desa, tag‘in kula-kula o‘lasan”* (TA, III, 111). Shuningdek, *ishchi – isitma, dehqon – bezgak (TA, III, 49); boylarnikida imlama, xasislarnikida dimlama (TA, III, 178); oyim oyimga boqar, oyim tuynukka boqar (TA, III, 207); it suyakchaynamasa, tishi qichiydi (TA, III, 256); hammanikiga do‘lona yoqqanda, biznikiga devona yog‘di (TA, III, 181); yalong‘och suvdan toymas (TA, III, 182); tutganda tutdek to‘kilib, yutkanda yo‘qdek safsata (TA, III, 295)* kabilarni ham maqol kabi falsafiy-estetik mazmunga ega bo‘lgan baraqaror bikmalar sifatida muallifning yaratiqlari sifatida baholashimiz mumkin. Demak, ulug‘ adib kichik asarlarda aytmoqchi, isbotlamoqchi bo‘lgan fikrni ixcham, sodda, xalq uchun tushunarli, mantiqan siqiq hamda ta’sirchan ifodalash uchun zarur o‘rinlarda tilga ijodiy yondashgan.

XULOSA

1. Mustaqillikdan keyingi yillarda Abdulla Qodiriyning badiiy tili, til birliklaridan uslubiy foydalanishidagi mahorati kabi masalalar, nafaqat, romanlari misolida, balki turli janrdagi asarlari tili misolida ham tadqiq etila boshlandi. Bunda adib ijodiy merosining tadiqiq obyekti sifatida janriy qamrovining ortishi bilan birga, lingvistik tadqiq yo‘nalishi, metodlarida ham yangicha yondashuvlarning yuzaga kelayotganligi ahamiyatli sanaladi. Adib asarlarining leksik-morfologik, grammatik xususiyatlari yoritilgan ishlar, shuningdek,

lug‘atchilik faoliyati o‘rganilgan tadqiqotlar Abdulla Qodiriy asarlarining lingvistik yo‘nalishda o‘rganish borasidagi alohida yutuqlardir.

2. Abdulla Qodiriyning nazmiy, nasriy yo‘nalishdagi kichik asarlari matnida leksik-semantik munosabat shakllari lisoniy vosita sifatida badiiy va so‘zlashuv uslubiga xos tarzda o‘zbek tilining keng ko‘lamdagi semantik, uslubiy rang-barangligini namoyish qila olgan. Leksemalardagi ma’nodoshlik, ma’nolardagi zidlik, shuningdek, ular ifodalagan ma’nolararo darajalanish favqulodda o‘ziga xos tasvir va obrazlar yaratishda qo‘l kelgan. Muallif bu vositalarning ham nutqiy, ham lisoniy ko‘rinishlaridan o‘rinli foydalanib, ularni badiiy-estetik maqsadga yo‘naltirgan hamda bu yo‘lda yangidan yangi uslubiy qo‘llanishlarni yuzaga keltirgan.

3. Adib yaratgan kichik asarlar tilini leksik planda tekshirish, lug‘aviy birliklarning ifoda xususiyatlarini aniqlash muallif tomonidan qo‘llangan so‘zlarning ayrimlari o‘z denotativ ma’nosida emas, balki nutqning ta’sirchanligini oshirish, ma’noni kuchaytirish, obrazli ifodalash maqsadida turli ko‘chma ma’nolarda qo‘llanganligini ko‘rsatdi. Jumladan, o‘xshashlik asosidagi metaforaning *antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, teamorfik* hamda *hissiyotlar bilan aloqador bo‘lgan assotsiatsiyaga asoslangan* turlari badiiy nutqni jonlantirish, emotsional-ekspressiv jihatdan kuchaytirish maqsadida maqola, hajviya, felyetonlar tilining semantik-sitilistik rang-barangligi ta’minlangan. Adib qo‘llagan metaforalarni *til metaforalari va badiiy metofora* tarzida ikkiga ajratish mumkin.

4. Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan kichik asarlarning lug‘aviy asosini o‘zbek tilidagi faol hamda uslubiy chegaralangan qatlamga oid leksik birliklar tashkil etadi. Chegaralangan leksik birliklar adib yaratgan kichik asarlar tilida o‘ziga xos tarzda poetik aktuallashgan: a) kichik asarlarda qo‘llangan leksik, frazeologik dialektizmlar personajlar nutqini individuallashtirishda, davr ruhini aks ettirishda, asar tilini soddalashtirish, fikrni xalqqa tushunarli qilib yetkazishda badiiy-estetik-vazifa bajargan; b) nutqiy yasalma sifatida ma’nosi kontekstdagina reallashgan, tasodifiy qo‘llanish chegarasida yuzaga kelgan okkazionalizmlar esa shaxsiy-ijodiy, matniy-uslubiy hodisa, nutqiy-uslubiy vosita sifatida kichik asarlar tilining funksional-stilistik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan; v) muallif tomonidan qo‘llangan umumtil neologizmlari, asosan, nominativ funksiyani bajargan. Ayrimlari esa nutq neologizmlari sifatida satirik tasvir vositasi tarzida voqelangan.

5. Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiy tili, xalq tili boyliklarini yaxshi bilganligi kichik asarlari matnida umumxalq tilining boy va rang-barang tomonlari o‘z ifodasini topganligida ko‘rinadi. Muallif o‘z asarlarining soddaligi, boyligi, keng ommaga tushunarli bo‘lishi, ravonligi, mazmundorligini ta’minlash uchun xalq tiliga xos bo‘lgan lisoniy unsurlardan unumli va maqsadli foydalangan.

6. Adib xalq tilida asrlar osha sayqallanib kelayotgan maqol, frazema kabi paremiologik birliklarni kichik asarlari matnida qo‘llaganida ularning mazmun va shakliga ijodiy, ongli munosabatda bo‘lgan. Bu holat muallifning ba’zi frazemalar, maqollarni ijodiy qayta ishlagani, ularni shaklan o‘zgartirib, uslub talabiga moslab matn tarkibiga singdirganligida o‘z ifodasini topgan. Abdulla Qodiriyning o‘zi

yaratgan aforistik satrlar, hikmatli so‘zlar o‘zbek tili lug‘at fondiga qo‘shilgan munosib hissadir.

7. Ulug‘ adibning badiiy til mahorati betakror o‘xshatish etalonlarini tanlashida, ularni xalqona ruh beradigan badiiy vositaga aylantirganligida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Muallif o‘zbek xalqi milliy-madaniy an’analarining betakror ko‘zgusi sanalgan an’anaviy o‘xshatishlarning mazmunini saqlangani holda yangicha o‘xshatish subyektlariga qiyoslash, zidlantirish bilan ularga yangilik bo‘yog‘ini bera olgan. Shuningdek, sodda tasvirlashdan chekingan holda harakat-holatning nozik jihatlarini aniq, ta’sirchan ifodalash maqsadida tabiat hodisalaridan, xalqning turmush tarzidan o‘xshatish etalonlarini mohirona topa bilgan va individual o‘xshatish konstruksiyalarini yaratgan. *O‘ratepaning sufrasidek; ilon tomonidan avralgan chumchuqdek; suxan gulistonining bulbuli kabi; kesak qisgan qovundek; yuzi misoli g‘alvirak bodom; teskari tushkan qozoqi kavshdek* kabi muallif yaratgan o‘xshatishlar obrazliligi, o‘ziga xosligi bilan ahamiyatli sanaladi.

8. Abdulla Qodiriy badiiy til mahoratini belgilovchi asosiy tasviriy vositalaridan biri sifatlashdir. Kichik asarlarda tilning barcha vazifaviy uslublarida keng qo‘llanadigan “umumtil sifatlashlari” bilan bir qatorda, badiiy nutq jarayonida tasviriylikni ta’minlagan, tasvirlash jarayonida badiiy ifodani kuchaytirgan, ijodiy individuallikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida narsa-hodisalarning kutilmagan jihatlarini tavsiflagan *ishonchli muttahamlar; chikkabel alvastilar; mukammal bir kambag‘alchilik*; *bo‘yni xurmachaning bo‘g‘ziga tenglahsgan akalar*; *boylar dumi, kapital xurjuni bo‘lg‘an teskari matbuot* kabi sifatlashlar ham uchraydiki, bunday leksik-stilistik vositalar adibning so‘z tanlash va fikrni oxorli ifodalarda berish mahoratini o‘zida namoyon qilgan.

9. Kichik asarlar tarkibiga kiruvchi hajviya, felyeton hamda satirik-yumoristik xarakterdagi maqolalarda so‘zlardagi fonologik o‘zgarishlar, ya’ni og‘zaki nutqdagi unlilarning cho‘ziq talaffuz qilinishi, undoshlarning ikkilantirilishi, so‘zlarnining buzib talaffuz qilinishi va boshqa xil nutqiy talaffuzlarni yozuvda aniq aks ettirish orqali turli xil konnotativ ma’nolar yuzaga chiqarilgan. Muallif fonografik vositalarning bunday uslubiy imkoniyatlaridan o‘rinli va maqsadli foydalanib, og‘zaki nutqdagi fonostilistik xususiyatlarni yozuvda aks ettirish bilan asarlari tilining ekspressiv imkoniyatlarini oshirgan. Ularni xalq tili va didiga yaqinlashtirgan, o‘qimishliligini ta’minlagan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

МАТКУРБАНОВА МУХАББАТ ШОКИРОВНА

СЕМАНТИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАЛОГО ЖАНРА АБДУЛЛЫ КОДИРИ

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/Fil4322.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации на трех (узбекском, русском, английском (резюме)) языках размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Нормаматов Султонбек Эрмаматович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Мухамелова Саодат Худайбердиевна** доктор филологических наук, профессор
	Каримов Суюн Амирович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «16» апреля 2025 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100066, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за №334) (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44, факс: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

Автореферат диссертации разослан «03» 04 2025 года

(протокол реестра рассылки № 02 от «03» 04 2025 года)

Х.А.Дадабоев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филол. наук, профессор

К.У.Нардаев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филол. наук, профессор

С.Аширбоев
Заместитель председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике приоритетное значение приобретает исследование исторического развития национальных языков, описание речевой реализации связанных с ним языковых единиц через язык художественного произведения, созданного в определенный период развития языка, выявление и научное обоснование языковых закономерностей определенного периода постепенного развития литературного языка на основе научного изучения лексико-семантических, семантико-стилистических, лингвохудожественных, лингвокультурологических особенностей художественного творчества того или иного писателя.

В мировой лингвистике накоплен значительный научный опыт по изучению лексико-семантических, семантико-стилистических особенностей языка художественного произведения, функционально-стилистических возможностей языковых средств в определенном произведении, подбору и употреблению слов в художественном тексте, выявлению стиля автора и, наряду с этим, определению поэтического масштаба художественной речи и стиля определенного периода. В современном процессе глобализации исследование произведений писателей, занимающих место в развитии литературного языка, во взаимосвязи с культурным сознанием того времени на основе принципа общности языка - художественности - национального сознания, освещение их прагмалингвистических, лингвокультурологических, этнолингвистических и психолингвистических особенностей считается одним из важных факторов, обеспечивающих развитие сферы.

В исследованиях, проводимых в настоящее время в области узбекского языкознания, осуществляются важные фундаментальные и прикладные научные исследования по комплексному изучению этапов развития литературного языка, углубленному изучению литературного языка и литературного наследия каждого периода, изучению наследия литераторов, оказавших влияние на развитие современного узбекского литературного языка. Процесс реформ в культурно-просветительской сфере предъявляет новые требования, как к изучению истории нашего литературного языка, так и национального языкознания. Узбекское языкознание на современном этапе своего развития уделяет особое внимание изучению тех периодов узбекского национального и литературного языка, которые ранее под влиянием советской идеологии, либо пренебрегались, либо исследовались поверхностно, односторонне, с негативной оценкой и, в особенности, в 20-30-е годы прошлого века. Ибо: «Мы считаем своей ключевой задачей продолжить глубокое изучение деятельности джадидов совместно с международными научными центрами, зарубежными учеными. Благодаря этому уникальному наследию можно найти правильные ответы на многие вопросы, волнующие сегодня человечество. Чем больше внимания мы станем уделять изучению и распространению этого великого духовного достояния,

тем глубже люди, особенно молодежь, будут осознавать ценность мирной и свободной жизни»[19]. Поэтому изучение исторических, научных, художественных произведений, созданных джадидами в лингвистическом аспекте, а также достойная оценка их заслуг в развитии нашего национального литературного языка требует проведения глубоких исследований в области языкознания. Несмотря на то, что в языкознании был проведен ряд исследований по изучению языка произведений представителя современной узбекской прозы, просвещенного писателя-джадида, публициста Абдуллы Кодири, язык его произведений малого жанра не был объектом специального исследования. Между тем, язык произведений малого жанра Абдуллы Кодири является достойным вкладом в развитие лексики и терминологии узбекской литературы и литературного языка того времени, и его исследование с лингвистической точки зрения может дать важный и значимый материал для определения тенденций развития и обогащения узбекского литературного языка периода 20-30-х годов XX века. Данное обстоятельство определяет актуальность выбранной темы.

Научные результаты данной диссертации в определенной степени служат выполнению задач, поставленных в Указах № УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» от 13 мая 2016 года, № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, № ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» от 4 октября 2019 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и способы их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Творчество Абдуллы Кодири во все времена привлекало внимание ученых. Большая часть исследований

[19] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 6 мартдаги жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига сўзлаган нутқи // www.president.uz.

